

TURKISTON MUXTORIYATI TARIXIGA DOIR

Izzatillaxon Maxmutaliyevich Xaydarov

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

“Markaziy Osiyo xalqlari tarixi” kafedrası professori, tarix fanlari doktori (DSc).

E-mail: izzatillakhon@gmail.com

To‘ychiboyev Shaxzod

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,

“Sharq mamlakatlari tarixi” yo‘nalishi 2-kurs talabasi.

E-mail: shahzodtuychiboyev@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20156381>

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot XX asr o‘zbek davlatchiligi tarixida o‘chmas iz qoldirgan, mintaqaning ilk demokratik va mustaqil boshqaruv tajribasi hisoblangan Turkiston Muxtoriyati (1917–1918) faoliyatiga bag‘ishlanadi. Unda muxtoriyatning tashkil etilishidagi ijtimoiy-siyosiy omillar, jadidchilik harakati vakillarining milliy ozodlik kurashidagi o‘rni hamda hukumatning qisqa muddatli faoliyati davomida amalga oshirgan islohotlari atroflicha tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Turkiston muxtoriyati, 72 kun, Mustafó Cho‘qay, Rossiya imperiyasi, Mahmudxo‘ja Behbudiy, milliy davlatlar, Zaki Validiy, Chanishev

Annotation. This research is dedicated to the activities of the Turkestan Autonomy (1917–1918), which left an indelible mark on the history of 20th-century Uzbek statehood and is considered the region's first democratic and independent governance experience. It provides a comprehensive analysis of the socio-political factors behind the establishment of the autonomy, the role of the Jadid movement representatives in the national liberation struggle, and the reforms implemented by the government during its short-term activity.

Keywords: Turkestan Autonomy, 72 days, Mustafa Chokay, the Russian Empire, Mahmoudkhodja Behbudi, national states, Zaki Validi, Chanishev.

Аннотация. Данное исследование посвящено деятельности Туркестанской Автономии (1917–1918), оставившей неизгладимый след в истории узбекской государственности XX века и считающейся первым опытом демократического и независимого управления в регионе. В нем всесторонне проанализированы социально-политические факторы создания автономии, роль представителей движения джадидов в национально-освободительной борьбе, а также реформы, осуществленные правительством в ходе его краткосрочной деятельности.

Ключевые слова: Туркестанская автономия, 72 дня, Мустафа Чокай, Российская империя, Махмудходжа Бехбуди, национальные государства, Заки Валиди, Чанышев.

Kirish. Milliy davlatlarning shakllanishi va rivojlanishi insoniyat tarixida muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Biroq turli davrlarda yirik imperiyalar tomonidan olib borilgan bosqinchilik siyosati natijasida ko‘plab milliy davlatlar o‘z mustaqilligini yo‘qotgan va mustamlakaga aylantirilgan. Bu jarayon nafaqat siyosiy tuzumlarning o‘zgarishiga, balki jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotiga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatgan.

Mustamlakachilik siyosati asosan kuchli davlatlarning zaif hududlar ustidan hukmronlik o‘rnatishi, ularning tabiiy boyliklarini egallashi va mahalliy aholining mehnatidan foydalanishi

bilan xarakterlanadi. Natijada milliy davlatlar tugatilib, ularning o'rniga mustamlaka boshqaruv tizimi joriy etilgan. Bu esa mahalliy aholining huquqlari cheklanishiga, milliy qadriyatlarining yo'qolib borishiga hamda iqtisodiy qaramlikning kuchayishiga olib kelgan. Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, mustamlakachilik oqibatlari bugungi kunda ham ko'plab mamlakatlarning rivojlanishida sezilib turadi. Shuningdek, milliy ozodlik harakatlari va mustaqillik uchun olib borilgan kurashlar tarixiy taraqqiyotda muhim o'rin egallaydi. Shu bois ushbu ishda milliy davlatlarning tugatilishi jarayoni va mustamlakachilik zulmining mohiyati chuqur tahlil qilinadi.

Adabiyotlar sharhi. Turkiston Muxtoriyati tarixini o'rganishda H. Sodiqov, R. Shamsutdinov, P. Ravshanov va Q. Usmonovlarning "Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida"¹ asari muxtoriyat yuzaga kelishidan oldingi mustamlaka tuzumi va ijtimoiy zulmni ochib beruvchi muhim manba hisoblanadi. Davlatchilik an'alarining davomiyligi va ma'muriy boshqaruv tizimidagi o'zgarishlar esa Bahodir Eshovning "O'zbekistonda Davlat va mahalliy boshqaruv tarixi"² asarida atroflicha yoritilgan bo'lib, u muxtoriyatning boshqaruv apparati mohiyatini tushunishga yordam beradi. Shuningdek, H. Sodiqov va N. Jo'rayev muallifligidagi "O'zbekiston tarixi"³ kitobida 1917-1918-yillardagi siyosiy jarayonlar, xususan, milliy hukumatning tashkil topishi va uning dasturiy maqsadlari aniq faktlar asosida tahlil qilingan.

Mintaqa tarixini fundamental va keng ko'lamda o'rganishda V. V. Bartoldning "Сочинения II том"⁴ to'plami muhim ahamiyatga ega bo'lib, u O'rta Osiyoning umumiy tarixiy manzarasi va ijtimoiy tuzilishi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Milliy ozodlik g'oyalarining shakllanishi va bosqinchilikka qarshi kurashning davriy bosqichlari H. Ziyoyevning "Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash: (XVIII–XX asr boshlari)"⁵ nomli tadqiqotida o'z aksini topgan. Nihoyat, Azamat Ziyoning "O'zbek davlatchiligi tarixi: (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar)"⁶ asari Turkiston Muxtoriyatini o'zbek xalqining ko'p asrlik mustaqil davlatchilik intilishlarining mantiqiy yakuni va yangi bosqichi sifatida baholash imkonini beradi.

Ushbu adabiyotlar majmuasi muxtoriyat tarixini ham siyosiy, ham huquqiy, ham mafkuraviy jihatdan yaxlit holda o'rganishga xizmat qiladi.

Natijalar. Rus hukmronligi o'rnatilgach, Turkistonda milliy davlatlar yo'q qilinib, o'lkaning siyosiy-ma'muriy tizimi Rossiya manfaatlari nuqtai nazaridan shakllantirildi. Oliy va o'rta boshqaruv lavozimlari rus harbiylari qo'lga topshirilib, tubjoy xalqlar vakillari faqat ijrochi sifatida quyi lavozimlarga tayinlandi. Garchand bu borada saylov tartiblari joriy etilgan bo'lsa-da, lekin Rus davlatiga sodiq kishilargina amalga o'tkazilgan. Masalan, volost (bo'lis) rahbarligi va qishloq oqsoqoligiga saylangan shaxslar shular jumlasidandir. Bunday hol Turkiston gubernatorligiga qarashli yerlarda hukm surgan edi.

¹ Sodiqov H, Shamsutdinov R, Ravshanov P, Usmonov Q. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: Sharq, 2000. – 466 b.

² Eshov B. O'zbekistonda Davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. – T.: Yangi asr avlodi, 2012. – B. 426.

³ Sodiqov H., Jo'rayev N. O'zbekiston tarixi. – T.: Sharq, 2011. – B. 122.

⁴ Бартольд В. В. Сочинения II том. Общие работы по истории Средней Азии, работы по истории Кавказа и восточной Европы. – Москва, 1963. – С. 350

⁵ Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash: (XVIII–XX asr boshlari) – T: Sharq, 1998. – 480 b.

⁶ Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi: (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar) — T: Sharq, 2000. — 368 b.

Rossiyaning mintaqadagi asosiy tayanchi bo'lmish bu gubernatorlik Sirdare, Farg'ona, Samarqand, Yettisuv va Kaspiyorti viloyatlarini o'z ichiga olib, poytaxti Toshkent shahri hisoblangan.

O'z navbatida, viloyatlar uezdlardan tashkil topgan. Chunonchi, Sirdare viloyatiga: Toshkent, Chimkent, Avliyoota, Qozoli va Perov; Farg'onaga: Qo'qon, Andijon, Namangan, Marg'ilon va O'sh; Samarqandga: Jizzax, Samarqand, Kattaqo'rg'on va Xo'jand; Yettisuvga: Verniy, Kopal, Lepsin, Jarkent, Pishpak va Prjevalsk; Kaspiyortiga: Ashxobod, Krasnovodsk, Mang'ishloq, Marv va Tajan uezdlari kiritilgan. Viloyatlarni harbiy gubernatorlar, uezdlarni boshliqlar boshqargan. Shu tarzda Turkiston general-gubernatorligiga hozirgi O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Turkmanistonning talay qismi qaragan. Uning aholisining umumiy soni taxminan 5,5 million hisoblanib, o'zbeklar salmoqli o'rinni egallagan.⁷

Aholi soni Buxoro xonligida 3 million, Xivada esa 500–700 ming kishidan iborat bo'lgan.

Bu joylarda ham o'zbeklar ko'pchilikni tashkil qilgan.

Turkiston o'lkasi 1860-yillardan boshlab bosqichma-bosqich Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingan va mustamlaka hududiga aylantirilgan edi. Xalqning iqtisodiy, madaniy va siyosiy huquqlari cheklangan, mahalliy aholi Rossiya fuqarolari bilan teng huquqqa ega emas edi. 1917-yilgi Fevral inqilobi natijasida podsho Rossiyasining qulashidan keyin vujudga kelgan siyosiy bo'shliq va erkinliklar Turkistonda milliy-demokratik kuchlarning faollashuviga sabab bo'ldi. 1917-yil noyabr oyida Qo'qonda Turkiston musulmonlarining IV favqulodda qurultoyi chaqirildi. Qurultoyda ishtirok etgan turli millat vakillari o'zbek, qozoq, qirg'iz, tatar, uyg'ur va boshqalar Rossiya imperiyasi tarkibida, ammo muxtor maqomda, o'zini o'zi boshqaradigan Turkiston Muxtoriyatini tashkil etish qarorini qabul qildilar. Bu voqea 1917-yil 27-noyabrda rasmiy e'lon qilindi. Turkiston Muxtoriyati, Qo'qon shahrida 1917-yilning noyabrida tashkil etilgan bo'lib, Rossiya imperiyasi parchalanishi va uning mustamlakalaridagi siyosiy bo'shliqqa bog'liq holda milliy mustaqillik va o'z taqdirini o'zi belgilash g'oyalari ilgari surgan muhim siyosiy tashkilotdir. Uning tashkil etilishi Turkiston xalqlari uchun o'z taqdirini o'zi hal etish, ozodlik va demokratiya yo'lidagi birinchi amaliy qadam bo'lgan edi. Ushbu bo'limda Turkiston Muxtoriyatining siyosiy va huquqiy asoslari, ya'ni uning tashkil etilishi, siyosiy tuzilishi va faoliyat yuritishdagi prinsiplari tahlil qilinadi. Turkiston Muxtoriyati, deyarli ikki oy davomida faoliyat ko'rsatgan bo'lsa-da, uning siyosiy tuzilishi va asosiy g'oyalari o'z vaqtida ahamiyatli edi.

Muxtoriyatning asosiy maqsadi — Turkiston xalqlarining o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini qo'lga kiritish va Rossiya imperiyasidan ajralib, muxtor davlat tashkil etish edi. Ushbu maqsadning amalga oshirilishi uchun Turkiston xalqlarining siyosiy birligini shakllantirish zarurati tug'ildi. Muxtoriyatning markaziy siyosiy organi Millat Majlisi edi. Bu qurultoyda ishtirok etgan vakillar mahalliy xalqning turli millatlarini, shu jumladan, o'zbek, qozoq, qirg'iz, tatar va boshqa musulmon xalqlarining manfaatlarini himoya qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edilar. Millat Majlisi 35 kishidan iborat bo'lib, uning tarkibida har xil millat vakillari, jumladan, jadidlar harakati vakillari, ma'rifatparvar ziyolilar va musulmonlar ishtirok etdi.

Turkiston Muxtoriyati garchi 72 kun faoliyat ko'rsatgan bo'lsada, tarixda o'ziga xos iz qoldirgan hukumatlardan biri sanaladi.

⁷ Sodiqov H, Shamsutdinov R, Ravshanov P, Usmonov Q. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: Sharq, 2000. – 466 b.

Turkiston Muxtoriyatining tashkil etilishi, faoliyati va uning tarixi bilan bog'liq bahs-munozaralar o'z davrida, hattoki, hukumat a'zolari va ishtirokchilari hamda keyingi davrlarda turli siyosatchilar, tarixchilar, adabiyotshunoslar va jamiyatshunoslar tomonidan olib borilgan va borilmoqda. Ilmda bahs-munozaralarning ko'p bo'lishi ko'rilgan masalani ochilmagan qirralarini namoyon bo'lishiga katta yordam beradi. Jumladan, Turkiston Muxtoriyatining tashkil etilishida ishtirok etgan va ushbu jarayonlarni o'z ko'zi bilan ko'rgan shaxslardan Mustaf Cho'qay va Ahmad Zaki Validiy To'g'onlarning o'zaro munosabatlari, ularning ayrim masalalarda fikr-mulohazalari hamda ular orasida bahslar keskin kechganligi ko'pchilik uchun to'la ayon emas. Aslida shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish ham shu davrdagi jarayonlarga chuqurroq qarashga va voqealarga yanada aniqlik kiritishga imkon beradi.⁸

Mustaf Cho'qay xorijda faoliyat ko'rsatgan davrda Turkiston mintaqasidagi jarayonlarga doimiy ravishda o'zining munosabatini bildirgan. O'zining fikrlarini turli matbuot materiallari orqali ifodalab ketgan. M.Cho'qay munosabati bildirgan masalalardan biri bu –Turkiston Muxtoriyati edi. U 1931-yil 11-dekabrda va 1932-yilning yanvar – fevral oylarida “Qo'qon (Turkiston – F.B.) muxtoriyatining 14 yilligi munosabati bilan” bitta “ilmiy yolg'on”ga qarshi maqolasini e'lon qilgan. Unda M.Cho'qay Turkiston Muxtoriyati haqida aytilgan fikrlarga raddiyalar bergan.

Mustaf Cho'qayning tarixni soxtalashtirilishi, xususan, Turkiston Muxtoriyatining tarixi buzib talqin qilinishi haqida quyidagi xulosalarni beradi:

Birinchidan, Mustaf Cho'qayning fikricha, tarixni ikki yo'l bilan yozish mumkin: tarixchi haqiqatan sodir bo'lgan faktlar to'g'risidagi materiallarni katta e'tibor bilan to'playdi va turli davrlarda sodir bo'lgan dalillar o'rtasida sabablarni va bog'lanishlarni o'rganadi. Olayotgan bilim va ma'lumotlar manbalariga katta e'tibor bilan qaraydi, to'plangan ma'lumotlarni o'zining ilmiy tayyorgarligiga qarab vijdon tarozida tortadi va shu tariqa bu ma'lumotlarni xolisona tahlil qiladi va baholaydi. Ilmiy tarixni to'liq ma'noda bilgan kishi uni shu usul bilan yozishi kerakligini ta'kidlaydi.

Mustaf Cho'qay ikkinchi yo'l sifatida esa: tarixchiga faktlar oldindan ma'lum va kerak bo'lganda ularni o'zi yaratishini aytib o'tadi. Bunda Mustaf Cho'qay nimani nazarda tutadi? U bundan ishonchsizligi hammaga ma'lum bo'lgan manbalardan foydalanishni, bu yerda xolis ilmiy tahlil yo'qligini, Kommunistik partiyaning yolg'onlari hukmron ekanligiga urg'u beradi.

Shuningdek, u sovet hokimiyati homiyligidagi xalqlarning milliy harakatlarini tavsiflovchi sovet tarixchilarning tarixga munosabatini ikkinchi yo'lda borganligini keltirib o'tadi.⁹

Ikkinchidan, bolsheviklar umuman fanga, xususan, tarixga obyektiv qarashni rad etishlarini, fan sinfiy kurash quroli ekanligini ta'kidlaydi. Shuningdek, tarix fan sifatida o'tmish haqidagi fandan ko'ra kelajak avlod uchun yaxshi saboq bo'la olishini bolsheviklar yaxshi biladilar, deb xulosa beradi. Shu bilan bir qatorda, 1916-yil qo'zg'oloni bolsheviklar tomonidan butunlay boshqacha soxtalashtirilgan talqinda tasvirlanganligini va bu haqda “Yosh Turkiston”ning sonlaridan birida unga munosabat yozganligini keltirib o'tadi.

Uchinchidan, Turkiston Muxtoriyatining tarixini buzib talqin qilinishi xususida ham mulohazalarini bildirgan.

⁸ Eshov B. O'zbekistonda Davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. – T.: Yangi asr avlodi, 2012. – B. 426.

⁹ Sodiqov H., Jo'rayev N. O'zbekiston tarixi. – T.: Sharq, 2011. – B. 122

Sovet tarixchilaridan biri P.Alekseyenkov o'zining yolg'onlari bilan yuqorida aytilganidek, ikkinchi guruhga qo'shilishini ta'kidlaydi. P.Alekseyenkov Turkiston Muxtoriyat haqida risola yozgan. M.Cho'qay esa unga munosabat bildirib javob yozgan va "Yosh Turkiston" jurnalida e'lon qilgan. M.Cho'qayning fikricha, P.Alekseyenkovning maqsadi Kommunistik partiya dasturi talablariga ko'ra Turkistonda rus proletariat diktaturasini himoya qilish, shu bilan birga Turkiston Muxtoriyatiga milliy va rus kapitalistlari bilan birgalikda milliy Turkiston burjuaziyasi boshchilik qilganligini isbotlashga harakat qilishdir.

To'rtinchidan, M.Cho'qay Zaki Validiy To'g'onning ham muxtoriyat haqidagi ayrim qarashlariga qo'shilmagan. Hattoki, keskin inkor etgan. Zaki Validiy kitobi qo'lyozmasining 340-sahifasida «Qo'qon hukumatining yagona ishonchli shaxsi bosmachilarning raisi Ergash edi. General Chanishev boshchiligida muntazam militsiyani shakllantirish boshlanganiga qaramay, allaqachon kech edi. Hukumat butunlay kapitalistlar ta'sirida edi. Moliya vazirligini boshqarish rasmiy vazir, advokat Islom Shaahmedov emas, balki uning o'rinbosari, yahudiy Genrix Zigelning qo'lida edi. Hukumat xayr-ehsonlar bilan yashashga majbur bo'ldi. Mahalliy savdogarlar xayr-ehson qilgan taqdirda, Sayid Nosir Mirjalolovdan boshqa hech kim javob bermadi. Hukumatning aniq g'oya va dasturi yo'q edi..." shu kabi fikrlar keltirilgan. Bu fikrlarga esa M.Cho'qay o'zining munosabatini bildirib, Zaki Validiy kitobining ilmiy tabiati bahsli ekanligini ta'kidlaydi. Bu asar mamlakatimizda sodir bo'lgan o'sha lahzalardan bexabar bo'lgan turk kitobxonlari uchun yozilgan, deb baho beradi. Shuningdek, Genrix Zigelning yahudiy emas, u haqiqiy avstriyalik nemis bo'lganligini, u Turkiston hukumati Moliya nozirining do'sti bo'lmaganligini, shuningdek, uni hukumatda hech qanday hokimiyatdan foydalanmaganligini keltirib o'tadi. Bularning hammasini Zaki Validiyning fantaziyasi bo'lishi mumkin, deb xulosa qiladi. M.Cho'qayning fikricha, buning sababi Turkiston Muxtoriyati hukumati ig'vogar maqsadlarni ko'zlaganligini va kapitalistlar ko'rsatmasi bilan tuzilganligini hamda ularning ta'sirida boshqarilganligini asoslashga urinish bo'lgan va bu yo'lda turli yolg'on o'ylab topilgan, yuzlab asarlar nashr qilingan.

Beshinchidan, Turkiston Muxtoriyati ag'darilgandan so'ng mintaqada boshlangan milliy ozodlik harakati masalasi ko'tarildi. Bu borada ham M.Cho'qay bilan Zaki Validiy o'rtasidagi fikrlar qarama-qarshiligi mavjud. M.Cho'qayning fikricha, mintaqada "bosmachi" deganda ikki xil tushuncha mavjudligini, birinchisi, talonchi va o'g'rilik bilan shug'ullangan guruhlar, ikkinchisi esa, milliy ozodlik uchun kurashgan haqiqiy erksevarlar bo'lganligini ilgari suradi.

Biroq Validiy ularga aniq ta'rif bermasdan bolsheviklar manbalariga tayangan va "bosmachilar" umumiy nomda salbiy xarakter kasb etgan degan mulohazalarni qilgan.

Xullas, davlatchilik tarixida o'ziga xos o'rin egallagan Turkiston Muxtoriyati tarixi bilan bog'liq qarashlar o'z davrida va keyingi yillarda ham bahs-munozaralarga sabab bo'lganligini kuzatish mumkin. Turkiston Muxtoriyati haqida qarashlarini e'lon qilgan ham Mustafo Cho'qay ham Ahmad Zaki Validiy To'g'on ham o'zini haq deb hisoblaydi. Biroq tarixiy jarayonlarga baho berishda faqatgina Mustafo Cho'qay yoki Zaki Validiyning fikrlarini asos sifatida olish to'g'ri bo'lmaydi. Ularning boshqa manbalar bilan qiyoslash va solishtirish lozim. Biroq ikki shaxs o'rtasidagi munosabatlar va ular bahs yuritgan masalalarni tahlil qilish davrning o'ziga xos jihatlarni yanada chuqur o'rganish imkonini beradi.

Turkiston Muxtoriyatining ijroiya hokimiyati Muvaqqat hukumat tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, uning boshlig'i Muhammadjonxo'ja So'fizoda (Yo'ldoshboyevich) edi.

Muvaqqat hukumatning asosiy vazifasi Turkistonning ichki ishlarini boshqarish, iqtisodiyotni mustahkamlash, milliy ta'lim tizimini shakllantirish va aholi turmushini yaxshilashga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish edi. Muxtoriyatning siyosiy tuzilmasi parlamentarizm tamoyillariga asoslangan bo'lib, uning asosiy prinsiplaridan biri xalqning erkin fikr bildirish huquqiga ega bo'lishi edi. Millat Majlisining qonun chiqarish vakolati mavjud bo'lib, unda eng muhim masalalar, jumladan, davlatning ijtimoiy va siyosiy tuzilmasi, yer islohoti, ta'lim va diniy erkinliklar, milliy armiyani tashkil etish kabi masalalar muhokama qilingan[4, 67-69]. Turkiston Muxtoriyatining huquqiy asoslari turli ijtimoiy qatlamlarning manfaatlarini hisobga olgan holda, umumiy turkistonlik, milliy, va diniy erkinliklarni ta'minlashga yo'naltirilgan edi. Muxtoriyatning huquqiy strukturasi muhim jihati shundaki, unda Turkiston xalqlarining etnik va dini xilma-xilligi hisobga olinib, barcha fuqarolarga teng huquqlar berish maqsad qilib qo'yilgan.

Qo'qon Muxtoriyati, o'z faoliyatini boshlaganidan so'ng, ta'lim tizimini isloh qilishni o'zining asosiy vazifalaridan biri sifatida belgiladi. O'sha davrda Turkiston o'lkasi, xususan, Qo'qon, Samarqand va Toshkent kabi yirik shaharlarda jadidlarning ta'lim tizimi keng tarqalgan edi. Bu tizim o'zining yangicha, zamonaviy fikrlarni qamrab oluvchi uslubi bilan ajralib turar edi.

Muxtoriyatning asosiy siyosiy yo'nalishlaridan biri – ta'limni yangi davrga moslashtirish, xalqqa zamonaviy bilim berish va ularga dunyoqarashni o'zgartirish edi. Milliy maktablarni rivojlantirish: Muxtoriyat ta'limni milliy til asosida tashkil etish va mushtarak ilmiy tizimni joriy etish masalasini ko'tardi. O'zbek, qirg'iz va boshqa musulmon xalqlarining milliy va madaniy qadriyatlarini saqlagan holda, yangi ilm-fan, texnologiya va ijtimoiy rivojlanish uchun zarur bo'lgan bilimlarni o'rgatish zarurati bo'ldi. Jadidlar harakati ta'limni isloh qilishning asosiy g'oyalardan birini tashkil etdi. Qo'qonda bu jarayon, ayniqsa, maktablarda zamonaviy pedagogik uslublar va metodlar bilan amalga oshirildi. Ayollar ta'limi: Qo'qon Muxtoriyati davrida ayollar huquqlarini kengaytirish, ularning ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish masalasi ham muhim o'rin egalladi.

Ayollarni zamonaviy bilimga ega qilish, ular uchun alohida maktablar ochish va ularni jamiyatda faol ishtirok etishga da'vat etish siyosati amalga oshirildi. Bu esa, o'z navbatida, ayollarni ta'limga jalb qilish va jamiyatdagi o'rni haqida yangicha fikrlashni keltirib chiqardi. Ijtimoiy adolat va iqtisodiy islohotlar Qo'qon Muxtoriyati iqtisodiy islohotlarga ham katta ahamiyat berdi. O'sha davrda Turkistonning dehqonchilik va chorvachilik sohalari rivojlangan bo'lsa-da, ularni modernizatsiya qilish, yer islohoti va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash zarurati mavjud edi.

Xulosa. Biroq, turli siyosiy va ichki nizolar, Sovetlarning kuchli harbiy bosimi va xalqaro siyosiy muhitning o'zgarishi Muxtoriyatning tugatilishiga sabab bo'ldi. Sovet Ittifoqining Turkiston hududiga bostirib kirishi, Muxtoriyatni qulatib, Turkistonni to'liq nazoratga olish imkonini berdi. Shunga qaramay, Qo'qon Muxtoriyatining g'oyalari, ijtimoiy islohotlar va milliy birlashish harakati keyinchalik Turkiston xalqlarining mustaqillik sari bo'lgan kurashida muhim ilhom manbai bo'ldi. Qo'qon Muxtoriyati o'zining qisqa, ammo mazmunli faoliyati bilan Turkiston xalqlarining o'z taqdirini belgilashdagi intilishlarini kuchaytirdi. Uning demokratik qadriyatlarni rivojlantirishga bo'lgan harakati, kelajakdagi milliy ozodlik harakatlarining poydevorini tashkil etdi.

Shu bilan birga, Qo‘qon Muxtoriyati tarixiy jihatdan Turkistonning siyosiy va ijtimoiy rivojlanishining yangi bosqichiga kirish uchun ilk qadamlardan biri sifatida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sodiqov H, Shamsutdinov R, Ravshanov P, Usmonov Q. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: Sharq, 2000. – 466 b.
2. Eshov B. O‘zbekistonda Davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. – T.: Yangi asr avlodi, 2012. – B. 426.
3. Sodiqov H., Jo‘rayev N. O‘zbekiston tarixi. – T.: Sharq, 2011. – B. 122.
4. Бартольд В. В. Сочинения II том. Общие работы по истории Средней Азии, работы по истории кавказа и восточной Европы. – Москва, 1963. – С. 350
5. Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash: (XVIII–XX asr boshlari) – T: Sharq, 1998. – 480 b.
6. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi: (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar) — T: Sharq, 2000. — 368 b.